“Ammofos-Maxam”AJda press-tur: Ilm, texnologiya va ishlab chiqarish uyg‘unligi

// 09 April 2026 yil
https://pda.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/ammofos-maxam-ajda-press-tur-ilm-texnologiya-va-ishlab-chiqa

“O‘zkimyosanoat AJ tomonidan Olmaliq shahridagi “Ammofos-Maxam” aksiyadorlik jamiyatiga ommaviy axborot vositalari vakillari uchun press-tur tashkil etildi. Tadbir davomida jurnalistlar korxonaning zamonaviy ishlab chiqarish jarayonlari, keng ko‘lamli modernizatsiya ishlari va ilmiy-texnik salohiyati bilan yaqindan tanishdilar.

Tadbir ishtirokchilariga dastlab ekstraksion fosfat kislotasi ishlab chiqarish jarayoni haqida batafsil ma’lumot berildi. U mineral o‘g‘itlar, xususan, ammofos va superfosfat ishlab chiqarishning asosiy xomashyosi hisoblanadi. Ishlab chiqarish jarayoni asosan digidrat yoki polugidrat usulida amalga oshiriladi. Mazkur loyiha 1973-yilda ishga tushirilgan bo‘lib, bugungi kunda yiliga P_2O_5 hisobida 136 400 tonna mahsulot ishlab chiqarish quvvatiga ega. Jarayon uzluksiz rejimda olib boriladi.

Ishlab chiqarish texnologiyasi fosfat xomashyosini sulfat kislota yordamida parchalash, kalsiy sulfatni fosfogips sifatida ajratish, hosil bo‘lgan pulpani filtrlash va fosfat kislotasini yuvish kabi bosqichlarni o‘z ichiga oladi.

Shundan so‘ng ishtirokchilar EFK-2 sexida amalga oshirilgan modernizatsiya ishlari bilan tanishdilar. Davlat rahbarining 2019-yil 3-apreldagi qarori doirasida ma’nan eskirgan uskunalar o‘rniga zamonaviy texnologiyalar joriy etildi. Jumladan, K-100 aylanma vakuum-filtri o‘rniga yuqori samaradorlikka ega DU-85/4200 tasmali vakuum-filtr o‘rnatilib, ishlab chiqarish samaradorligi sezilarli darajada oshirildi.

Korxonada import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish bo‘yicha ham muhim yutuqlarga erishildi. Xususan, 2022-yildan boshlab drenaj roliklarini mahalliy sharoitda ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilib, uskunalarning chidamliligi va xizmat muddati uzaytirildi. Press-tur davomida jurnalistlar Ammofos (2-navbat) sexidagi ishlab chiqarish jarayonlarini ham kuzatdilar. Bu yerda fosfat kislotasini ammonizatsiya qilish, mahsulotni bug‘latish, donadorlashtirish va quritish orqali yuqori sifatli mineral o‘g‘itlar tayyorlanadi.

Shuningdek, ishtirokchilar korxona tarkibidagi Ilmiy-tadqiqot kimyo-texnologik laboratoriyasi faoliyati bilan ham tanishdilar. Xalqaro standartlar asosida ishlovchi mazkur laboratoriya mahsulot sifatini nazorat qilish, yangi texnologiyalarni joriy etish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda muhim o‘rin tutadi.

Umuman olganda, ushbu press-tur korxonada amalga oshirilayotgan islohotlar, innovatsion yondashuvlar va ishlab chiqarish quvvatlarini oshirishga qaratilgan sa’y-harakatlarni keng jamoatchilikka yetkazishda

muhim ahamiyat kasb etdi.